XALQ DEPUTATLARI QARSHI TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 22 - avgust VI-65-83-4-59-K/22 Qarshi tuman hokimligi

Tumandagi ayrim mahalla fuqarolar yig’inlaridagi ko’chalarni nomlash to’g’risida.

O’zbekiston Respublikasining «Geografik obektlarning nomlari to’g’risida»gi Qonuni va O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktyabrdagi “Geografik obektlarning nomlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq “Geografik obektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O’zbekiston Respublikasi davlat soliq qo’mitasi huzuridagi kadastr agentligining 2022 yil 5 iyuldagi 08-05651-sonli ekpertiza xulosasi, viloyat hokimligining 2022 yil 16 iyuldagi 15/2557-sonli Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo’yicha komissiyasining xatini ko’rib chiqib, O’zbekiston Respublikasi «Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida»gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O’zbekiston Respublikasi davlat soliq qo’mitasi huzuridagi kadastr agentligining 2022 yil 5 iyuldagi 08-05651-sonli ekpert xulosasi, viloyat hokimligining 2022 yil 16 iyuldagi 15/2557-sonli xatiga muvofiq tumandagi ayrim aholi punktlaridagi nomsiz ko’chalarga yangi nom berish to’g’risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Tumandagi 5 ta (“Charog’il”, “Yangi Bog’obod”, “Bog’obod”, “Mang’it”, “Yangi Batosh”) mahalla fuqarolar yig’inlaridagi yangi nomlangan 28 ta ko’chalar ro’yxati **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman statistika bo’limi, Kadastrlar palatasi Qarshi tumani filiali (J.Primov), tuman arxitektura va qurilish bo’limi (G’.Murodov) va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari, tuman hokimligi bilan birgalikda mahalla fuqarolar yig’inidagi yangidan nomlangan ko’chalarni davlat ro’yxatidan o’tkazish va yelektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o’zgartirishlar kiritish bilan bog’liq barcha tadbirlarni amalga oshirsinlar.

4.Tuman ichki ishlar bo’limi (N.Ovlayev)ga yangidan nomlangan mahalla fuqarolar yig’inlaridagi ko’chalarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks yettirilgan yo’l belgilariga tegishli o’zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

5.Tuman arxitektura va qurilish bo’limi (G’.Murodov)ga hududlarda yangi nomlangan aholi punktlarining tarkibiy qismlarining yangi nomlari yozilgan ko’rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma- bosqich o’rnatilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror “e-ijro.gov.uz” elektron tizimi orqali manfaatdor tomonlarga yetib borishi inobatga olinsin.

7.Mazkur qaror hokimlikning rasmiy veb-saytiga e’lon qilinsin.

8.Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog’liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi (R.Berdiyev) hamda tuman hokimining o’rinbosari (B.Murodov)lar zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi **P.Tuliyev**

Xalq deputatlari Qarshi tuman
Kengashining
2022 yil 22 avgustdagi
VI-65-83-4-59-K/22-son qaroriga
1-ilova

Qarshi tumanidagi ayrim aholi punktlaridagi nomsiz ko’chalariga yangidan nom berilganligi

RO’YXATI

T/R	Mahallasn	Ko’chaning avvalgi nomi	Berilgan nomi
1.	“Charog’il” mfy	**Nomsiz ko’cha**	**Sayhon**
2.	“Charog’il” mfy	Nomsiz ko’cha	Sarkor
3.	“Charog’il” mfy	Nomsiz ko’cha	Eldosh
4.	“Charog’il” mfy	Nomsiz ko’cha	Guzar
5.	**“Yangi Bog’obod” mfy**	**Nomsiz ko’cha**	**In’om**
6.	“Yangi Bog’obod” mfy	Nomsiz ko’cha	Ixtirochi
7.	“Yangi Bog’obod” mfy	Nomsiz ko’cha	Milliylik
8.	“Yangi Bog’obod” mfy	Nomsiz ko’cha	Mohiyat
9.	“Yangi Bog’obod” mfy	Nomsiz ko’cha	Odillik
10.	**“Bog’obod” qfy**	**Nomsiz ko’cha**	**Xiyobon**
11.	“Bog’obod” qfy	Nomsiz ko’cha	Orzu
12.	“Bog’obod” qfy	Nomsiz ko’cha	Saodat
13.	“Bog’obod” qfy	Nomsiz ko’cha	Sharaf
14.	“Bog’obod” qfy	Nomsiz ko’cha	Obod qishloq
15.	“Bog’obod” qfy	Nomsiz ko’cha	Buyuk alloma
16.	“Bog’obod” qfy	Nomsiz ko’cha	Mamlakat
17.	“Bog’obod” qfy	Nomsiz ko’cha	Sohibzamon
18.	“Bog’obod” qfy	Nomsiz ko’cha	Inoqlik
19.	“Bog’obod” qfy	Nomsiz ko’cha	Tabarruk zamin
20.	“Bog’obod” qfy	Nomsiz ko’cha	Obod mahalla
21.	“Bog’obod” qfy	Nomsiz ko’cha	Tadbirkorlar
22.	**“Mang’it” mfy**	**Nomsiz ko’cha**	**Zamin**
23.	**“Yangi Batosh” mfy**	**Nomsiz ko’cha**	**Yangiavlod**
24.	“Yangi Batosh” mfy	Nomsiz ko’cha	Ahilobod
25.	“Yangi Batosh” mfy	Nomsiz ko’cha	Ziyonur
26.	“Yangi Batosh” mfy	Nomsiz ko’cha	Sharq darvozasi
27.	“Yangi Batosh” mfy	Nomsiz ko’cha	Shodmonlik
28.	“Yangi Batosh” mfy	Nomsiz ko’cha	Yangilanish